

XALQARO TALIS DASTURI VA UNING AHAMIYATI.**Yo‘ldosheva Mohichehra Musurmon qizi***Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat va milliy instituti magistr talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘qitish va o‘rganish bo‘yicha xalqaro tadqiqot – TALIS dasturining mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari, metodologik asoslari hamda ta‘lim siyosatiga ko‘rsatayotgan ta‘siri atroflicha tahlil qilingan. Dastur orqali o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati, ish sharoitlari, rahbarlik yondashuvlari va ta‘lim muhitining holati xalqaro kontekstda o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada TALIS tadqiqotining texnik talablari, natijalarni umumlashtirish mexanizmlari va bu natijalarning ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilishdagi o‘rni yoritilgan. Turli mamlakatlar misolida olib borilgan tahlillar asosida dastur ta‘lim siyosatida ishonchli empirik manba bo‘lib xizmat qilishi, pedagogik kadrlar tayyorlash, rahbarlikni rivojlantirish tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta‘kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Talis xalqaro baholash dasturi, ta‘lim sifati, rahbarlik faoliyati, o‘quv muhiti, texnik talablar, ta‘lim siyosati.*

Аннотация: *В данной статье представлен комплексный анализ содержания, целей и задач, методологических основ и влияния программы Teaching and Learning International Study (TALIS) на политику в области образования. Программа изучает профессиональную деятельность учителей, условия труда, подходы к лидерству и состояние образовательной среды в международном контексте. В статье также рассматриваются технические требования исследования TALIS, механизмы обобщения результатов и роль этих результатов в принятии решений, направленных на повышение качества образования. На основе анализа примеров разных стран подчеркивается, что программа служит надежным эмпирическим источником для политики в области образования, играет важную роль в совершенствовании системы подготовки педагогических кадров и развитии лидерства.*

Ключевые слов: *Международная программа оценки Talis, качество образования, лидерство, образовательная среда, технические требования, образовательная политика.*

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the content, goals and objectives, methodological foundations and impact of the Teaching and Learning International Study (TALIS) program on education policy. The program studies the professional activities of teachers, working conditions, leadership approaches and the state of the educational environment in an international context. The article also discusses the technical requirements of the TALIS study, the mechanisms for generalizing the results and the role of these results in making decisions aimed at improving the quality of education. Based on the analysis of the examples of different countries, it is emphasized that the program serves as a reliable empirical source for education policy, plays an important role in improving the system of training pedagogical personnel and developing leadership.*

Keywords: *TALIS international assessment program, quality of education, leadership activities, educational environment, technical requirements, educational policy.*

Kirish

Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir vaqtda bo'lajak pedagoglarni kasbga yo'naltirish va ularda ishga bo'lgan tashabbuskorlik ijodiy munosabatini shakllantirish zarur ekanligiga iqror bo'lamiz. Global miqyosda ta'lim sifatini oshirish va pedagogik faoliyatni tizimli ravishda rivojlantirish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan desak mubolag'a bo'lmaydi. Uzluksiz ta'limning poydevori hisoblangan umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda nafaqat o'quv dasturlari, balki pedagoglarning kasbiy malakasi, ularning o'z ustida ishlash ko'nikmalari va maktab boshqaruvining sifati muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarning kasbiy malakasi, mehnat sharoitlari va rahbarlik faoliyati ta'lim sifati va o'quvchilarning yutuqlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda xalqaro tadqiqotlar va baholash dasturlari jumladan, TALIS (Teaching and Learning International Survey) o'qitish va o'rganish bo'yicha xalqaro tadqiqot

alohida o‘rin egallaydi. Bu dastur o‘qituvchilarning ish sharoitlari va maktablardagi o‘quv muhitini o‘rganishga qaratilgan birinchi xalqaro tadqiqot dasturidir. TALIS dasturi joriy etilishidan oldin Yevropa hamjamiyatlari OECD doirasida ta‘lim sifatini yaxshilash bo‘yicha umumiy yo‘nalishlar ustida ishlayotgan bo‘lsa-da, ko‘plab mamlakatlarda ta‘lim tizimi va o‘qituvchilar oldida turgan muammolar tobora keskinlashib borayotgan edi. Ya‘ni ta‘lim hali ham bilim sohasi bo‘lishidan uzoq edi. Ko‘pchilik mamlakatlarda maktab ta‘limining an‘anaviy modellarida o‘quvchilar ko‘proq faqat akademik iqtidoriga qarab baholangan, individual qobiliyatlar va salohiyatlarni rivojlantirishga yetarli e‘tibor qaratilmagan edi. Bu holat, o‘z navbatida, iste‘dodli, lekin an‘anaviy mezonlarga to‘liq mos kelmaydigan o‘quvchilar e‘tibordan chetda qolishiga olib kelayotgan edi. Dunyo davlatlari tobora rivojlanib borar ekan, yuqori malakali mutaxassislariga bo‘lgan talab ham ortib borayotgan edi. Bu esa ta‘lim tizimlarida tub o‘zgarishlarni joriy etishni talab qilardi. Shu sababli ta‘lim jarayonini chuqur tahlil qilish, o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati, ish sharoitlari va o‘qituvchilik kasbining nufuzini oshirishga oid ishonchli ma‘lumotlarga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortdi. Ana shunday global ehtiyojlar asosida 2008-yildan boshlab Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organization for Economic Cooperation and Development) tomonidan TALIS (Teaching and Learning International Survey) dasturi yo‘lga qo‘yildi.

Bu dastur orqali turli mamlakatlarda pedagogik faoliyatning real holati o‘rganilib, xalqaro solishtirma tahlillar amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari asosida davlatlar o‘z ta‘lim siyosatini takomillashtirish, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniga ega bo‘ladi. Ushbu maqolada TALIS (Teaching and Learning International Survey) dasturining mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari, o‘tkazilishining metodologik va texnik asoslari hamda ta‘lim siyosatiga ta‘siri tahlil qilingan..

ASOSIY QISM

TALIS (Teaching and Learning International Survey)¹⁹³ ta'lim sohasidagi xodimlarning kasbiy faoliyati, ish sharoitlari va ularning ta'lim jarayoniga ta'sirini o'rganishga qaratilgan birinchi xalqaro qiyosiy tadqiqot dasturidir. Dastur Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development – OECD)¹⁹⁴ tomonidan tashkil etilgan bo'lib, 2008 -yildan beri har besh yilda bir marotaba o'tkazib kelinadi. Tadqiqot kelib chiqishi tarixiga nazar soladigan bo'lsak Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti OECDning 2005 yildagi o'qituvchilar siyosati sharhiga asoslanadi. TALIS (Teaching and Learning International Survey) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organization for Economic Cooperation and Development) ning Ta'lim tizimlari ko'rsatkichlari (Indicators of Education systems INES) loyihasining bir qismi sifatida ishlab chiqilgan. O'tmishda 20 yil yoki undan ko'proq vaqt davomida INES ishonchli asosni ta'minlaydigan izchil ko'rsatkichlar to'plamini yaratishga harakat qildi¹⁹⁵. INES dasturi yillar davomida ko'rsatkichlarni ishlab chiqishda sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da ta'lim muhiti va maktablarning tashkil etilishi, shuningdek, ta'lim natijalari, muhim kamchiliklar mavjudligi sababli ta'lim muhitini chuqurroq tahlil qilish zarurati TALIS xalqaro baholash dasturining yaratilishiga zamin yaratdi.

TALIS (Teaching and Learning International Survey) tadqiqotlari mavjud ta'lim tizimiga maktab jamoasining ko'zi bilan qarashga, ma'lumotlarni taqqoslab tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida shu singari dolzarb masalalarni imkon qadar barvaqt aniqlash, chuqurroq o'rganish hamda ularni hal qilishning eng samarali usullarini izlab topishga yordam beradi.

Dasturning asosiy maqsadi ishtirok etuvchi mamlakatlarning o'rta ta'lim tashkilotlarida eng samarali o'quv jarayonini ta'minlovchi mehanizmlarni aniqlash va ishlab chiqishda yordam berishdir. Shuningdek, ishtirokchi mamlakatlarga samarali o'qitish va o'rganish

¹⁹³ The OECD Teaching and Learning International Survey [Электронный ресурс] // OECD. <https://www.oecd.org/education/talis>

¹⁹⁴ OECD [Электронный ресурс] // OECD. <https://www.oecd.org/education/talis>

¹⁹⁵ Creating Effective Teaching and Learning Environments: First Results from TALIS © ISBN 978-92-64-05605-3

uchun shart-sharoitlarni o'rganishga qaratilgan ta'lim siyosatini ishlab chiqishda yangi ustuvor yo'nalishlarni ko'rib chiqish va aniqlash imkonini beradigan ishonchli, dolzarb va qiyosiy ma'lumotlar taqdim etishdan iborat.¹⁹⁶

TALIS taqdiqotining vazifalari:

- jamiyatda pedagogning ijtimoiy mavqeyini oshirish;
- o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish;
- iqtidorli yoshlarni pedagogika soxasiga jalb qilish;
- uzluksiz malaka oshirish jarayonini takomillashtirish; uning istiqbolli yo'nalishlarini belgilab berish;
- moderator o'qituvchilarni tanlash;

TALIS(Teaching and Learning International Survey) dasturining o'ziga xos jihati shundaki, u ta'lim sohasidagi ichki muammolarni xalqaro kontekstda ko'rib chiqishga imkon yaratadi. Masalan, dars berish uslublari, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari, rahbarlik yondashuvlari, o'qituvchining ijtimoiy mavqei kabi ko'plab omillar xalqaro tajriba asosida baholanadi. Shuningdek, TALIS(Teaching and Learning International Survey) ishtirokchilari orasida tashkil etilgan anonim so'rovlar orqali o'qituvchilar o'z fikr-mulohazalarini bimalol bildirishlari mumkin, bu esa real holatni ob'ektiv yoritishga xizmat qiladi. Shunday qilib, TALIS(Teaching and Learning International Survey) dasturi maktablar va ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimi, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va o'quv muhitining yaxshilanishi uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TALIS(Teaching and Learning International Survey) texnik talablariga binoan so'rovnoma namunasi uchun muayyan mam lakatning 200 ta maktablar tasodifiylik tamoyili asosida tanlab olinadi. Har bir maktabdan 20 nafar 5-9-sinflarda ta'lim beradigan o'qituvchilar va shu so'rovnomada qatnasha yotgan maktabning direktori, o'rtacha jami 200 nafar direktorlar va 4000 nafar o'qituvchi ishtirok etadi. Ya'ni, TALIS(Teaching and Learning International Survey) xalqaro tadqiqotining texnik talablari asosida tanlab olingan umumta'lim maktablari pedagoglarining kamida 2 foizi qatnashishi lozim. Taqdiqot doirasida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan to'rt toifa pedagogik va texnik xodimlar-

¹⁹⁶ A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat va milliy instituti tomonidan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi mavjud pedagogik, metodik va ijtimoiy muxit haqida ma'lumot to'plash maqsadida o'tkazilgan hisoboti. 2-qism.

maktab direktori, direktor o‘rinbosarlari, fan o‘qituvchilari hamda texnik xodimlarning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Faqatgina ushbu shartlar bajarilgan taqdirda tadqiqot natijalari mamlakat miqyosida haqiqiy va ishonchli deb e’tirof etiladi.

TALIS(Teaching and Learning International Survey) **tadqiqotining ta’lim siyosatiga ta’siri**. TALIS dasturining eng muhim xususiyatlaridan biri — u ta’lim tizimining holatini xalqaro miqyosda baholabgina qolmay, balki ta’limga oid siyosiy qarorlar qabul qilishda ishonchli empirik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu holat o‘z navbatida ta’lim siyosatini ishlab chiqishda boshqa davlatlar tajribasini oddiy nusxalash emas balki chuqur qiyosiy tahlil asosida yondashishni talab etadi. Siyosiy yechimlar oddiygina boshqa ta’lim tizimlari yoki tajribalarining nusxasi bo‘lmasdan, balki qiyosiy tahlil bo‘lishi kerak [OECD 2014].

TALIS (Teaching and Learning International Survey) – O‘qitish va o‘rganish bo‘yicha xalqaro tadqiqot) dasturi ta’lim siyosatini shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. U mamlakatlarga o‘zlarining ta’lim tizimlarini chuqur tahlil qilish va samarali o‘zgarishlar kiritish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, samarali o‘qitish, salohiyatli o‘qituvchilar, shuningdek maktabda kuchli yetakchilik — yuqori darajadagi muvaffaqiyatli o‘quvchilarni yetishtirishning kalitidir. Shu sababli, mamlakatlar quyidagi kabi dolzarb savollarga javob izlaydilar:

Bugungi kunda maktab o‘qituvchilari turli qiyinchiliklarga dosh berishga qanchalik tayyor?

Baholash va berilgan munosabat tizimlari qanday qilib yaxshi o‘qitish hamda o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini samarali qo‘llab-quvvatlashi mumkin?

Maktab va o‘quvchilarning yutuqlarini takomillashtirish maqsadida maktab yetakchiligini qanday qilib kuchaytirish mumkin?

Siyosatchilar o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga sarflangan resurslar ularning amaliy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishiga qanday ishonch hosil qilishlari mumkin?

TALIS (Teaching and Learning International Survey) mazkur savollarga empirik ma’lumotlar asosida javob topishga yordam beradi va ta’lim siyosatida asosli qarorlar qabul qilishga turtki beradi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchilar faoliyatining samaradorligini oshirish, maktab rahbarlarining boshqaruv salohiyatini rivojlantirish va ta’lim sifatini yaxshilash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, TALIS(Teaching and Learning International Survey) tadqiqotlari ta’limda samarali boshqaruv tizimini

joriy etish, maktab rahbarlarining mas’uliyatini oshirish va ularning yetakchilik salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Natijalar asosida rahbarlik yondashuvlarini qayta baholash, transformatsion liderlikni rag‘batlantirish va maktab muhitini sog‘lomlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Xalqaro miqyosdagi solishtirma tahlillar esa mamlakatlar uchun o‘z pozitsiyasini aniqlash, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va moslashtirish imkonini yaratadi. Shu bois, TALIS dasturining natijalari ta’lim tizimida ilmiy asoslangan, manzilli, statistik ma’lumotlarga tayangan qarorlar qabul qilish jarayonini rag‘batlantiradi. Bu esa uzoq muddatli barqaror ta’lim siyosatini ishlab chiqishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. OECD tomonidan o‘tkazilgan xalqaro TALIS –2013 natijalari asosida bir qator davlatlarda o‘qituvchilar mehnatini rag‘batlantirish va ularning kasbiy rivojlanishini qo‘llab quvvatlash bo‘yicha islohotlar amalga oshirilgan. Masalan Shanxayda o‘qituvchilar oylik maoshi 10 foizga oshirilgan. Avstraliyada o‘qituvchilarni oliy ta’limdan keyingi tayyorgarligi bo‘yicha yangi dasturlar joriy etilib, professional standartlar yangilangan. Italiyada “Yaxshi maktab” loyihasi doirasida o‘qituvchilar malakasini oshirish uchun qo‘shimcha mablag‘ ajratilib, o‘qituvchilarga haq to‘lash tizimiga o‘zgartirish kiritgan bunda asosiy e’tibor o‘qituvchilar faoliyat samaradorligiga qaratildi. Angliyada maktablar uchun 1 kun (yiliga 3-marta) davom etadigan “qisqa tekshiruvlar” joriy etilib, ushbu holat navbatdagi tadqiqotlarda pedagoglar tomonidan “yaxshi” deb baholangan [OECD, 2014].

XULOSA

TALIS xalqaro tadqiqoti — zamonaviy ta’lim tizimini chuqur anglashga xizmat qiladigan birinchi xalqaro so‘rovnoma bo‘lib, u o‘qituvchi va maktab rahbarlarining kasbiy faoliyati, ish sharoitlari va ta’lim muhitini keng qamrovda tahlil qilish imkonini beradi. Dastur maqsadi — ishtirokchi mamlakatlarda o‘qituvchilik kasbining holatini real statistik ma’lumotlar orqali yoritish, ta’lim siyosatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi dalillar bazasini yaratishdir. Tadqiqotning texnik asoslari — puxta ishlab chiqilgan so‘rovnomalar, zamonaviy tahlil metodlari va keng qamrovli xalqaro metodologiyaga tayanadi. Eng asosiysi, TALIS natijalarida yangi davr talablari o‘qituvchilar butun umr davomida o‘z ustilarida ishlashlarini taqozo etishi, sifatli ta’limni sifatsiz o‘qituvchilar bilan barpo etish ilojisiz ekani ta’kidlanadi. maktablar faoliyatini takomillashtirishga doir qarorlar qabul qilishda

muhim rol o‘ynaydi. Shunday ekan, TALIS — bu shunchaki tadqiqot emas, balki ta’lim tizimini isloh qilishga yo‘naltirilgan xalqaro harakatning ilmiy asosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Creating Effective Teaching and Learning Environments: First Results from TALIS – ISBN 978-92-64-05605-3 © OECD 2009

2. © OECD 2014» TALIS 2013 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners

3. XALQARO TAJRIBA MEZONLARI ASOSIDA A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI TOMONIDAN UMUMIY O‘RTA TA’LIM TASHKILOTLARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK, METODIK VA IJTIMOIIY MUHIT HAQIDA MA’LUMOT TO‘PLASH MAQSADIDA O‘TKAZILGAN TADQIQOT HISOBOTI 2-qism. Toshkent-2021.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.

5. Dilshoda Jalilova Ural Qizi, & Shaxnoza Jalilova Ural Qizi (2023). TA’LIM JARAYONLARIDA «TALIS XALQARO BAHOLASH DASTURI»DAN FOYDALANISH. Science and innovation, 2 (Special Issue 10), 561-563. doi: 10.5281/zenodo.10040578 3

6. Sh. Ruziyeva (2022). XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING UZLUKSIZ TA’LIMDAGI BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. Science and innovation, 1 (B5), 375-379. doi: 10.5281/zenodo.7057413

7. Ganieva, M. (2024). POSSIBILITIES OF REFORMING THE LOGICAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF PRIMARY EDUCATION TEACHERS. Современные подходы и новые исследования в современной науке, 3(16), 111-114.

8. Международная образовательная программа TALIS. // www.ziyounet.uz.